



Baxtiyor QIRG'IZOV,
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:baxtiyorbekxudoberdi@gmail.com

DSc, dots. B.Xaynazarov taqrizi asosida

THE HISTORY OF SACRED SITES AND SUFI SHRINES LOCATED IN THE FERGANA REGION AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the historical development of sacred shrines and Sufi pilgrimage sites located in the Fergana region, as well as their role in the spiritual life of the area. Based on historical sources, the study examines the formation of pilgrimage complexes, their intrinsic connection with Sufi teachings, and their significance in the religious consciousness of the local population. Particular attention is paid to assessing the impact of these sacred sites on the development of pilgrimage tourism and their contribution to the socio-economic development of the region. The author emphasizes the issues of preservation, academic research, and integration of the Fergana region's pilgrimage sites into modern tourism infrastructure. The findings substantiate the necessity of a comprehensive and sustainable approach to the development of pilgrimage tourism.

Key words: Fergana region, sacred shrines, Sufism, pilgrimage sites, pilgrimage tourism, spiritual heritage.

ИСТОРИЯ СВЯТЫХ МЕСТ И СУФИЙСКИХ СВЯТЫНЬ, РАСПОЛОЖЕННЫХ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ, И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Аннотация

В статье проводится научный анализ истории формирования азиз авлийо и суфийских зиаратгахов, расположенных на территории Ферганской области, а также их роли в духовной жизни региона. На основе исторических источников раскрываются процессы становления паломнических комплексов, их органическая связь с суфийской традицией и значение в религиозном сознании населения. Особое внимание уделяется оценке влияния данных святынь на развитие паломнического туризма и их вкладу в социально-экономическое развитие региона. Автор акцентирует внимание на вопросах сохранения, научного изучения и интеграции зиаратгахов Ферганской области в современную туристическую инфраструктуру. Полученные результаты обосновывают необходимость комплексного и устойчивого развития паломнического туризма.

Ключевые слова: Ферганская область, азиз авлийо, суфизм, зиаратгахы, паломнический туризм, духовное наследие.

FARG'ONA VILOYATIDA JOYLASHGAN AZIZ AVLIYOLAR, TASAVVUFGA OID ZIYORATGOHLAR TARIXI VA ULARNING ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati hududida joylashgan aziz avliyolar, tasavvufga oid ziyoratgohlarning vujudga kelish tarixi hamda ularning mintaqa ma'naviy hayotidagi o'rni ilmiy tahlil etiladi. Ziyorat maskanlarining tarixiy shakllanish jarayoni, tasavvuf ta'limoti bilan uzviy bog'liqligi va xalq diniy ongidagi ahamiyati manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ushbu muqaddas qadamjolarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi roli hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri baholanadi. Muallif Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlarni muhofaza qilish, ilmiy jihatdan o'rganish va ularni zamonaviy turizm infratuzilmasiga integratsiya etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmini kompleks va barqaror rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, aziz avliyolar, tasavvuf, ziyoratgohlar, ziyorat turizmi, madaniy-ma'naviy meros.

Kirish. Yurtimizdagi aksariyat ziyoratgohlar xalqimiz tomonidan o'tmish zomonlardan buyon ulug'lanib kelinayotgan tariqatu tasavvuf peshvolari bo'lgan aziz avliyolarimiz nomlari bilan bog'liqdir. Mazkur buzruklarimiz haqida Xudo taolo shunday marhamat qiladi: "Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy (do'st)lariga (oxirada) xavf yo'qdir va ular tashvish ham chekmaslar. Ular imon keltirgan va taqvoli bo'lganlardir"[9.155]. Avliyolar Alloh nurining ma'danlari bo'lib, ularga Haq taolo tomonidan karomat beriladi. Karomat Payg'ambar alayhissalomning sunnatlariga doimo amal qilish natijasida paydo bo'ladi. Bizga ma'lumki Islom olaminig tariqat sarchamalari jahonda juda ko'plab maktablari mavjud. Jumladan Horis binni As'ad Muhosibiy nomi bilan bog'liq Mihosibiya, Abu Hafs Nishopuriy, Hamdun Qassor, abu Usmo Hirriylar asos slogan Malomatiya, Boyazid Bistomiy ta'limoti hisoblanmish

Tayfuriya, Junayd Bag'dodiy tariqati bo'lgan Junaydiya, shayx Husayn Ahmad Nuriy maktabi bo'lmish Nuriya, Abduqodir Jiyoniy ta'limoti hisoblangan Qodiriya, Shahobiddin Abuhafs Umar Suhravardiy nomi bilan atalgan Suhravardiya, Najmiddin Kubro Xorazmiy tariqati hisoblangan Kubroviya, Ibrohim Adham va Muniddin Chishtiyar maktabi bo'lmish Chishtiya, Bahovuddin Muhammad Naqshband asos solgan Naqshbandiya, Hoji bektosh Valiy tariqati bo'lgan Bektoshiya tariqatlari tarixan mavjud va mashhur bo'lgan. Bundan tashqari o'tmishda Mashriqzaminning turli mintaq va shaharlarida Shotiriya, Ahroriya, Hakimiya, Xarroziya, Hafifiya, Sayyoriya, Rofe'iya, Haydariya, Shoziliya, Ne'matullohiya, Nurbaxshiya kabi tasavvuf maktab va tariqatlari foloyat ko'rsatib irfoniy ma'rifat inkishofiga u yoki bu darajada ulush qo'shgan[8. 6-11]. Farg'ona viloyatida esa tasavvufning Yassaviya, Qodiriya va Naqshbandiya tariqatlari tarixan keng

tarqalgan. Aynan tariqat nomoyondalari va muridlar tomonidan aziz avliyolar ulug'lanib, ularning karaomatlari va darajalariga muvofiq e'zozlaganlar. Avliyolarning karomati haqdir. Bu borada Farg'ona viloyatida ham bir necha ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ular ziyorat turizmini rivojlantirishga munosib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Farg'ona vodiysi hududida joylashgan aziz avliyolar va tasavvufga oid ziyoratgohlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar ilmiy adabiyotlarda turli yo'nalishlar doirasida yoritilgan. Ushbu mavzu, asosan, Markaziy Osiyo islom tarixi, tasavvufshunoslik, etnografiya va madaniy merosni o'rganish kontekstida ko'rib chiqilgan.

Markaziy Osiyoda islom va tasavvuf tarixiga oid fundamental tadqiqotlarda Farg'ona vodiysi mintaqaning muhim diniy va ma'naviy markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, V.V. Bartold va A.Yu. Yakubovskiy asarlarida islomning Farg'ona hududiga kirib kelishi, sufiy tariqatlarining shakllanishi va avliyolar institutining tarixiy idizlari umumiy tarixiy jarayonlar doirasida tahlil qilingan [1; 2]. Ushbu tadqiqotlar mavzuning tarixiy asoslarini yoritishda muhim bo'lsa-da, alohida ziyoratgohlar tizimli tadqiqot ob'yekti sifatida kam yoritilgan.

O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Farg'ona vodiysida faoliyat yuritgan sufiy shayxlar, tasavvuf ta'limoti va avliyolarning xalq diniy ongidagi o'rni kengroq ochib berilgan. Xususan, Sh.S. Kamoliddinov va A.Q. Sagdullayev asarlarida Farg'ona hududidagi tasavvufiy muhit, mahalliy avliyolar va ularning ijtimoiy-diniy mavqei haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi [3; 4]. Bu ishlar ziyorat amaliyotining diniy va ma'naviy mazmunini tushinishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Etnografik va antropologik tadqiqotlarda Farg'ona vodiysi aholisi orasida ziyorat an'analari, muqaddas qadamjolariga bo'lgan munosabat va avliyolar kultining ijtimoiy funksiyalari yoritilgan. Jumladan, A. Ahmedov va M. Is'hoqov tadqiqotlarida ziyoratgohlar nafaqat diniy maskan, balki jamoaviy xotira va ma'naviy identifikatsiya markazi sifatida talqin qilinadi [5; 6]. So'nggi yillarda madaniy meros va ziyorat turizmi masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda muqaddas qadamjolarining turizm sohasidagi salohiyati masalasi ilgari surilmoqda [7; 8]. Ammo ushbu ishlarda Farg'ona viloyati misolida tasavvufga oid ziyoratgohlarning tarixiy xususiyatlari ko'pincha umumiy tavsif bilan cheklanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida joylashgan aziz avliyolar va tasavvufga oid ziyoratgohlar tarixiy va ma'naviy nuqtayi nazardan muayyan darajada o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Farg'ona viloyatida joylashgan aziz avliyolar va tasavvufga oid ziyoratgohlarning tarixiy shakllanishi hamda ularning ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot tarixiylik va fanlararo yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Ish jarayonida tarixiy-genetik metod yordamida ziyoratgohlarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlar Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridagi muqaddas maskanlar bilan qiyoslandi. Yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar tarixiy-tanqidiy tahlil asosida o'rganildi.

Shuningdek, fanlararo yondashuv doirasida tarix, dinshunoslik va madaniyatshunoslik metodlari uyg'unlash- tirilib, ziyoratgohlar madaniy meros va ziyorat turizmining muhim resursi sifatida baholandi. Tadqiqotda tizimli- strukturaviy metod qo'llanilib, ziyoratgohlarning tarixiy va

ijtimoiy-madaniy funksiyalari yagona tizim sifatida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Farg'ona viloyatida joylashgan aziz avliyolar va tasavvufga oid ziyoratgohlarning eng taniqlilaridan biri "Sayyid Ubaydulloh xoja Kirgil azizlar" ziyoratgohi hisoblanadi. Naql qilishlaricha, bundan taxminan ikki yuz yil muqaddam yashab o'tgan "Sayyid Ubaydulloh Xoja Kirgil Azizlar" yoxud "Mushukni tiriltirgan To'ram" nomi bilan mashxur bo'lgan Hazrat Ubaydulloh ibn Abdulloh hoja dafn etilgan [10. 111]. "Qalacha qishlog'ida avlodni tasdiqlovchi shajara hisobiga ko'ra, Ubaydulloh xojam taxminan 1750-1830 yillar istiqomat qilganlar. Sayyid Ubaydulloh xojam 72 yoshida vafot etganlar [13. 15]. Rivoyatlarga asosan jasadlari ot aravaga solingan xozirgi "Sayyid Ubaydulloh Xoja Kirgil azizlar" ziyoratgohi yerga kelib to'xtagan va shu yerga dafn qilinganlar. Zamondoshlarning aytishlaricha, Sayyid Ubaydulloh xojam namozdan keyin jamoa bilan namoz halqasiga o'tirib qolishgan ekan. Shunda hozirgi Kirgil azizlar ziyoratgohi mavjud bo'lgan hududda yashagan ixlosmand muridlardan biri Qo'ldosh so'fi masjid xonaqosi eshigi oldida bomdod nomoziga kechikkaniga xijolat tortib, qor yog'ayotganiga qaramay, ichkariga kirishga uyalib, kechikkanligi uchun qattiq afsuslangan, anashu asnoda hatto elkasiga bir enlik qor yoqqanligini, sovuq o'tganligini ham sezmagani. Pir suhbatlaridan bahramand bo'lmay qolganiga qattiq iztirob chekkan so'fining tashqarida afsuslanib, tavba qilib iltijo etganligini Sayyid Ubaydulloh xojam tavajjuh bilan bilib "So'fi kirgil" deb buyuradilar. Shu daqiqadan boshlab jamoa "Kirgil, so'fi" deb pir nazarini topganligi uchun uni ziyorat qiladilar. Qo'ldosh so'fi farzandi-hojining avlodi Kirgil qishlog'ida istiqomat qilishadi.

O'z davrida bu ziyoratgoh hududi ancha keng bo'lib, 400 kishilik xonaqoh, bitta o'n bir xujrali madrasa bo'lib, ushbu madrasa qoldiqlari 1987 yilgacha mavjud bo'lgan. 17 ta besh yuz yillik chinorlar bor edi. Ming afsuski hozirda ushbu chinorlardan faqatgina bittasi saqlanib qolgan holos. Qolgan 16 ta chinorni 2000 yilda o'sha davrdagi MFY ning Solijon ismli raisi kestirib, mebel fabrikasiga sotib yuborgan ekan. Ilgari ziyoratgohga qarashli 2 ta chillaxona bo'lib, birinchisi 4X4 metr o'lchamda Qorasuv arig'ini yonida, ikkinchisi esa hozirgi choyxona o'rmida toshli hovuz yonida bo'lgan. Qorasuv arig'i 1710 yilik qazilgan bo'lib, aynan shu davrda Toshloqdagi Yakovut arig'i ham barpo qilingan edi. Eng asosiysi esa bu ziyoratgohda O'rta osiyoda yagona hisoblangan uch toshli tegirmon bo'lgan va bu gidroinshootda mazkur ziyoratgohga yig'ilgan zakot va ushurlardan tushgan gallalar yanchilib, tayyor mahsulot sifatida haqdorlarga beminnat tarqatilgan. Uch toshli tegirmon taassufki mahalliy aholi tomonidan xususiy lashtirilib 2011 yili buzib tashlangan [16].

"Xoja Muhammad Porso qadamolari" me'moriy yodgorligi ziyoratgohi Marg'ilon shahrining Xoja Porso mahallasida joylashgan. Mazkur ziyoratgoh to'g'risida so'z yuritishdan oldin biz Xoja Muhammad Porso haqida va uning nomi bilan bog'liq boshqa hududlardagi ziyoratgohlar haqida ham to'xtab o'tsak. Tasavvuf tariqatining ulug' namoyandalariidan biri, tarixchi va ilohiyotshunos Xoja Muhammad Porsoning to'liq nomi Muhammad ibn Mahmud Hofiziy Buxoriydir. U zot 1348 yili Buxoro shahrida tug'ilgan bo'lib, Bahouddin Naqshbandning ikkinchi xalifasidir [10]. Naql qilishlaricha, u zot Marg'ilonga tez-tez kelib turganlari sababli ham Marg'ilon xalqi u kishiga atab qadamjo sifatida marqad ko'targan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Xoja Muhammad Porso ziyoratgohidagi yetti qabrdan biri uning farzandi qabri bo'lib, qolganlari Abduhalil Hazrat domla, Buxor domla, Bibi Oysha, Nuriddin maxsum, Mulla Abdusamad oxun, Shamsiddin Tabriziy singari muazzam zotlarning qabrlaridir [13]. Ma'lumotlarga ko'ra, Xoja

Muhammad Porso marqadi 1936 yili buzib yuborilgan. Shundan so'ng, ziyoratgoh uzoq vaqtga qadar tiklanmay turgan. Mahalliy aholi va ziyoratchi xotin-qizlar ushbu ziyoratgohga kelib o'z niyat maqsudlarini Xudo taolodan so'rab, aziz avliyolarimizni vasila qilib, ubodat va duoi xayrlar qiladilar[16].

“Ofoq Xojam qadamjolari” ziyoratgohi Toshloq tumani, Zarkent maahallasida joylashgan. Naql qilishlaricha, ziyoratgoh bir kunda paydo bo'lib qolgan emish. Usha kuni buloq ham chiqqan deyishadi. Ziyoratgoh tuproqlaridan badaniga va sochiga oq tushganlar surkab shifo topganliklari uchun "Oq mozor" deb ham atalgan ekan. Aytishlaricha, ziyoratgohidagi buloq XX asrning 50-yillarida berkilib ketgan[15].

Naql qilishlaricha, ushbu ziyoratgoh Ofoq xojamning qadamjoyi bo'lib, Ofoq xojam Qoshg'arga keta turib shu yerda to'xtab, ziyoratgoh bo'lishi uchun tug' ko'tarib qo'yib ketgan ekanlar[13]. Aytishlaricha, ziyoratgohdan zambarakdan o'q otilgan tovushi eshitilib turgan.

Ziyoratgoh o'tgan asrning 90-yillariga qadar vayrona holatda bo'lib kelgan. Faqatgina yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ushbu ziyoratgohda keng ko'lamda obodonlashtirish ishlari olib borildi. Bunday xayrli ishlarni amalga oshirishda zarkentlik tadbirkor Sultonboy Mamitalievning xizmatlari beqiyosdir. Aynan uning sa'y-harakatlari bilan Toshloqning sergavjum ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

“Hoja Abdulhakim qovunchi ota” ziyoratgohi. Bu tabbaruk maskanning maqbarasiga aziz avliyolarimizdan Abdulhakim ota dafn qilingan. Bu Ulug'imizni mahalliy aholi “Qovunchi ota” yoki “Qalbi chin ota” deb ham ataydilar. Ziyoratgoh yonidagi jome masjidi ham “Qalbi chin ota” deb rasmiy yuritiladi. U Zot bu yerlarga kelib qolib qovun ekib dehqonchilik qilgan. Kunlarning birida mahalliy podshohlardan biri shu yerdan o'tayotib askarlari bilan qovun emoqchi bo'libdi. Shunda qovunchi ota qovunlar etilmaganini, Xudo xohlasa, qaytish vaqtlarigacha albatta etilishini aytibdi. Podshoh aytilgan vaqtdan ancha ilgari qaytib kelsaki, qovunlar polizda pishib yotganmish. Shunda podshoh qovunchi chol oddiy dehqonlardan emas, balki valiylardan ekanligini anglab, uni “Qovunchi ota” deb e'zozlagan ekan. O'sha-o'sha

Abdulhakim nomi Qovunchi ota nomi bilan mashhur bo'lgan ekan.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida joylashgan aziz avliyolar va tasavvufga oid ziyoratgohlar tarixiy, diniy va madaniy jihatdan hududning eng muhim meros ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ushbu ziyoratgohlar nafaqat diniy-amaliy markaz sifatida, balki mintaqaning ijtimoiy hayoti va ma'naviy rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Ziyorat amaliyoti orqali mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar orasida diniy-ma'naviy qadriyatlar saqlanib, jamiyatda ijtimoiy birlashuv va madaniy uzviylik shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi ziyoratgohlarining ziyorat turizmi sohasida hali kompleks va tizimli tadqiq qilinmaganligini ko'rsatdi. Ziyoratgohlarning turizm salohiyati, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojga qo'shadigan hissasi va madaniy merosni targ'ib qilish imkoniyatlari ilmiy asosda baholanishi talab etiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Ziyoratgohlarni ilmiy inventarizatsiya qilish va saqlash: Farg'ona viloyatidagi muqaddas maskanlar bo'yicha sistematik arxiv va hududiy ma'lumotlar bazasini yaratish, tarixiy va madaniy ahamiyatini aniqlash.

Barqaror ziyorat turizmini rivojlantirish: Ziyoratgohlarni zamonaviy turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish, tashrif buyuruvchilar uchun axborot, xizmat va logistika tizimlarini rivojlantirish, turizm jarayonida ekologik va madaniy muvozanatni saqlash.

Madaniy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish: Ziyoratgohlarning milliy va diniy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyatini ilmiy va jamoatchilik platformalarida targ'ib qilish, turizm faoliyati orqali ma'naviy-ma'rifiy ta'sirni oshirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi hududning turistik jozibadorligini oshirish, ziyoratgohlarni kelajak avlodlar uchun saqlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish va ziyorat turizmining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. - М.: Наука, 1963.
2. Якубовский А. Ю. Феодалное общество Средней Азии. - М.: Изд-во АН СССР, 1959.
3. Камолидинов Ш. С. Средневековая культура Ферганы. - Ташкент: Фан, 2008.
4. Сагдуллаев А. Қ. Тасаввуф ва Марказий Осиё маданияти муҳити. - Тошкент: Академнашр, 2015.
5. Ахмедов А. Фарғона водийсида диний анъаналар. - Тошкент: Фан, 2012.
6. Исхоков М. Ўзбекларда зиёрат маданияти. - Самарқанд: Зарқалъам, 2016.
7. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim Al-Bursaviy. Ahli sunnat val-jamoat aqoidi. - Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 1998.
8. Hamidjon Homidiy. “Tasavvuf allomalari”. - Toshkent: “Sharq” matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009.
9. Shayx Abdulaziz Mansur, Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Yunus surasi, 62, 63 -oyatlar ma'naviy tarjimasini. - Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
10. Abdulahatov N., Eshonbobyev O'. Ko'hna Marg'ilon ziyoratgohlari. - Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2007.
11. Sadridin Salim Buxoiy. Ikki yuz yetmish yetti pir. - Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2006.
12. Qulfiddinov X. Jannatmakon Diyor. - Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2008.
13. B.Eraliyev, I.Ostonaqulov, N.Abdulahatov. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari: Farg'ona viloyati. - Toshkent: “Turon Zamin Ziyot” nashriyoti, 2014.
14. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
15. Abdulhatov N., To'xtaboyev I. Toshloq tarixidan lavhalar. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
16. B.X.Qirg'izovning Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlarni o'rganishidagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.